Kam zaharli g’o’za defoliantlari olishning noan’anaviy texnologiyasi

Respublikamizda mahalliy xom-ashyolar asosida yangi import o’rnini bosuvchi samarali g’o’za defoliantlarini ishlab chiqishni tashkil etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada O’zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti yosh olimlari fiziologik faol moddalar saqlagan samarador, kam zaharli g’o’za defoliantlari olishning noan’anaviy texnologiyasini ishlab chiqish ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

G’o’zaning fiziologik jarayonlarini tezlashtiruvchi, vegetatsiya davrini qisqartiriruvchi va hosildorligini oshiruvchi, kam zaharli, tarkibida makro- va mikroelementlar birikmalarini tutgan yangi, samarali defoliantlarni sintez qilish va ularning olinish texnologiyasi ilmiy asoslarini yaratish maqsadida, tarkibi xloratlar, nitrat, atsetat, sulfat etanolaminlari va etilen hosil qiluvchi moddalardan tashkil topgan suvli sistemalarning o’zaro eruvchanligi va eritmalarning reologik xossalari keng harorat va konsentratsiya oralig’ida tadqiq etiladi. Sistemalarda hosil bo’ladigan yangi qattiq fazalarning hosil bo’lish maydonlari harorat va kontsentratsiyaga bog’liq holda chegaralanadi, tarkibi aniqlanadi, yangi birikmalar identifikatsiya qilinadi.

Yangi defoliant tarkiblarini olish jarayonini fizik-kimyoviy asoslash uchun, xloratlar, nitrat, atsetat, sulfat etanolamin va etilen hosil qiluvchi moddalar asosidagi komponetlarning o’zaro ta’sirlashish mexanizmlarini tekshirish maqsadida “tarkib-xossa”lari o’rganiladi va yangi defoliant tarkiblarni olish jarayonining maqbul sharoitlari aniqlanadi. 1 tonna defoliant olish jarayonining moddiy balansi tuziladi, texnologik sxemasi taklif etiladi, laboratoriya va sanoat tajriba namunalari ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarilgan defoliantlarning reologik va tovar xossalari, defoliantning va uning ishchi eritmalarining saqlanish muddati aniqlanadi.

Olingan preparatlarni g’o’zada agrokimyoviy samaradorligini kichik va katta dala tajriba maydonlarida baholash va maqbul qo’llash bo’yicha tavsiyanoma ishlab chiqiladi.